

# **NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



Namangan davlat universitetining “Odob-axloq qoidalari oid ichki tartib qoidalari Namangan davlat universiteti . kasaba uyushma qo‘mitasi va universitet kengashining 20<sup>23</sup> yil <sup>25 august</sup> .... dagi ..... – sonli qo‘shma yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqlandi.

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETIDA  
SOG‘LOM MA’NAVIY-MA’RIFIY MUHITNI  
SHAKLLANTIRISH, JAMOA A’ZOLARI O’RTASIDA  
O’ZARO HURMAT, KIYINISH MADANIYATI,  
MUOMALA MADANIYATI,  
ODOB-AXLOQ QOIDALARIGA OID**

**ICHKI TARTIB QOIDALARI  
(yangi tahriri)**



## **KIRISH**

“Ta’lim to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi Qonunlar, kadrlar taylorlash milliy dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan qarorlari, farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining normativ-huquqiy hujjatlariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 14 iyun 746-tartib raqami bilan ro‘yxatga olingan “Korxona, muassasa, tashkilot ichki mehnat tartibining na’munaviy qoidalari”, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligining “Namangan davlat universitetining Odobaxloq qoidalari”, “Namangan davlat universitetining ichki tartib qoidalari ishlab chiqildi.

### **1-BOB. OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XOS USHBU TAVSIYALAR:**

a) Oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy – ma’nnaviy muhitni shakllantirish va uni mustahkamlashning eng ustuvor yo‘nalishi sifatida “Xalq davlat idoralariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan tamoyil asosida oliygoh rahbariyati tomonidan professor-o‘qituvchilar, talabalar, fuqarolarning murojaatlarini o‘z vaqtida o‘rganish va mavjud muammolarning o‘z vaqtida bartaraf etilishi

lozim: oliy ta’lim muassasasi rektori, prorektorlari, fakultet dekanlarining virtual qabulxonalarini, oliygohning “Onlayn maslahatchi” moduli, “Adolat qutisi”, “Talabalar qabulxonalarini”, “Ota-onalar kengashi”ning faoliyatini samarali tashkil qilish, oliygohning professor-o‘qituvchilari va xodimlari, talabalari bilan muntazam (rejali) uchrashuvlar, ochiq muloqotlar o‘tkazish, ko‘tarilgan masalalar va muammolar bo‘yicha tegishli choralar ko‘rib borish.

b) Xodimlarga nisbatan: jamoada o‘zaro hurmat, kiyinish madaniyatiga rioya qilish, ma’naviy-ma’rifiy sog‘lom muhitni shakllantirish va rivojlantirish, pedagogik faoliyatni takomillashtirish, talabalarga boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda munosabatda bo‘lishni va barcha qoidalardan to‘g‘ri va oqilona foydalanishni;

v) Talabalar, tinglovchilarga (keyingi o‘rinlarda matnda – ta’lim oluvchilar deb yuritiladi) nisbatan: ma’naviy-ma’rifiy jamoaviy ishlarda faol ishtirok etish, professor-o‘qituvchilarga hurmatda bo‘lish, murabbiylar ko‘rsatmalariga rioya qilish, belgilangan tartibdagi tahsil olish, kiyinish madaniyati qoidalariiga amal qilish, ta’tillaridan unumli va oqilona foydalanishni tartibga soladigan tavsiyaviy xarakterdagi hujjat hisoblanadi.

g) Tavsiyalar oliy ta’lim muassasasining professor-o‘qituvchilari, xodimlari va talabalari bilan kelishib, oliy ta’lim muassasiga ma’qul kelganidan so‘ng qabul qilinadi va oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladi.

d) Tavsiyalarga amal qilish ish beruvchi, xodim hamda ta’lim oluvchilar uchun majburiy hisoblanadi,

ularga rioya qilmaslik tavsiyalar bo‘limlaridagi qoidalar qonunchilikka muvofiq bo‘lsa intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

## **2-BOB. OLIY TA’LIM MUASSASASI JAMOA A’ZOLARI O’RTASIDA O’ZARO HURMATGA DOIR TAVSIYALAR:**

- a) oliy ta’lim muassasasi jamoasi avvalo yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi nuqtai-nazaridan faoliyatini davom ettirish;
- b) oliy ta’lim muassasasi xodimlarning ma’muriyatga (rektor, prorektorlar, dekanlar, dekan muovinlari, kafedra mudirlari, bo‘lim boshliqlari va shunga xos rahbarlar) nisbatan subordinatsion munosabatda bo‘lish;
- v) oliy ta’lim muassasasi jamoa a’zolari o’rtasidagi o’zaro munosabatda tanqidiy fikrlarni to‘g‘ri va asosli qabul qilish.

## **3-BOB. TAVSIYAVIY XARAKTERDAGI TANQIDIY FIKRLARDAN XULOSALAR CHIQARISH:**

- a) tanqid qilayotgan xodimning zarur va kerakli tavsiyalariga rioya qilish;
- b) jamoa a’zosining so‘z erkinligi ta’minlangiligi nuqtai-nazaridan, birovga tuhmat qilish, uni haqorat qilish, o’zaro munosabatlarda behayo so‘zlardan foydalanish huquqini kafolatlamaydi;
- v) oliy ta’lim muassasasi jamoasida murojaat madaniyat darajasida bo‘lishi o’zaro munosabatni mustahkamlab beradi.

## **4-BOB. RASMIY MUROJAATLAR:**

- a) rahbarga, mutaxassisga, ta’lim beruvchi ustozga murojaat etilayotganda belgilangan tartib asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.
- b) norasmiy murojaatlarda ham asosan – ishonchlilik, do’stona va samimiyl munosabat ustuvor ahamiyatga ega.
- v) oliy ta’lim muassasasi jamoasining suhbatlashish etiketida ma’naviy-ma’rifiy muhitni mustahkamlashdagi asosiy tamoyil hisoblanadi (Suhbatlashishning ham o’ziga xos tavsiyaviy qoidalari mavjud. Suhbatdoshga og‘ir botadigan, xafa qiladigan, noqulay vaziyatga solib qo‘yadigan, gapirishni xoxlamaydigan mavzu bo‘yicha suhbatlashish mumkin emas.
- g) suhbat chog‘ida jamoa a’zosi o‘z “men” ini markaziy joyga qo‘ymasligi muhim sanaladi.
- d) Suhbatda asosiy mezon kamtar bo‘lish. O‘zining fikrini o‘qtirishdan oldin, uyalib qolmasligi uchun suhbatdoshining ijtimoiy kelib chiqishi, shaxs sifatida, aytilayotgan masala yuzasidan qanday ma’lumotga ega ekanligini bilib olgandan so‘ng suhbatga kirishish. Suhbatdoshni hurmat qilishga o‘rganish, hatto uni fikrini noto‘g‘ri deb bilsa ham oxirigicha eshitish); - oliy ta’lim muassasasi jamoasi o‘rtasida o‘zaro hurmat belgilaridan biri-nutqdir. Nutq ma’noli, burro, dona-dona, ta’sirchan bo‘lishini unutmaslik. Nutqda jargon so‘zlarni qo‘llamaslik. Ba’zida xodimlar jargon so‘zlarni haqorat deb qabul qilishining oldini olish.

Muhim fikrlarga urg‘u berish va imo-ishorani o‘rnida qo‘llash. Haddan tashqari baland ovozda nutq so‘zlash, tinglovchilarga o‘z hukmini o‘tkazyapti degan taassurot qoldiradi.

Haddan tashqari past ovozdagi nutq qabul qiluvchanlikni pasaytiradi va aks savollarni bo‘lishini yuzaga keltiradi. Haddan tashqari cho‘zib, imillab nutq so‘zlash vaqtni cho‘zyapti, degan fikrni tug‘diradi. Haddan tashqari tez so‘zlash esa, auditoriyaga bo‘lgan hurmatsizlik deb qabul qilinadi.

Jamoa a’zosining sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi hamda xalqimizning ma’naviy merosini avaylab asrash maqsadida jamoa a’zolari bir-biriga nisbatan hurmatsizlik qilishi, behayo so‘zlar ishlatishi qat’iy taqiqlanadi hamda oliy ta’lim muassasasida o‘zaro “Siz” deb murojaat qilish odat tusiga kirishi lozim. Oliy ta’lim muassasasi jamoa a’zolari turli tadbirdarda (majlislar, tantanali yig‘ilishlar, amaliy uchrashuvlar, bayramlarda) so‘zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish, maishiy tinchlikka rioya etishi shart.

Zarurat taqozo etsa, bir notiq o‘z so‘zini tugatib, boshqasi so‘z boshlashiga qadar yuzaga keladigan uzilish vaqtida zaldan chiqib ketish mumkin.

Jamoa a’zolari oliy ta’lim muassasasi hududida yo‘lning o‘ng tomonidan yurishlari kerak. Bir-biriga duch kelganda albatta salomlashishlari, bunda:

a) talabalar professor-o‘qituvchilar va xodimlarga, erkaklar xotin-qizlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo‘lib salom berishlari tavsiya etiladi.

Bundan qo‘l berib so‘rashish istisno bo‘lib, yoshi katta shaxslar birinchi bo‘lib qo‘l uzatganidan keyingina unga javoban qo‘l uzatish mumkin.

O‘quv mashg‘ulotlariga va ishga hamda jamoa a’zolarining osoyishtaligiga halaqit beradigan xattiharakatlar (radiopriyomnik, televizor, magnitofon va

boshqa ovoz kuchaytirish vositalaridan maqsadsiz foydalanish) sodir etish taqiqlanadi.

Oliy ta’lim muassasasida har qanday huquqbuzarlik sodir etish ta’qiqlanadi, shu jumladan, pora olish, pora berish, vositachilik qilish, tuhmat qilish, haqorat qilish, jamoa a’zosiga ma’naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ma'lumotni tarqatish, tan jarohati yetkazish, fuqarolik muomalasidan chiqarilgan vositalarga oid munosabatlarga kirishish (giyohvand moddalar, psixotropik vositalar va hokazo), ichkilikbozlik, kashandalik, maishiy tinchlikka tajovuz qilish, janjallashish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘ynilar o‘ynash qat’iyan man etiladi.

Oliy ta’lim muassasasi jamoasida talabalar muhim bo‘g‘in bo‘lganligi bois, ularning o‘zaro munosabati muhim ahamiyatga ega. Talabalarning o‘zaro munosabatlarida-yagona jamoa, o‘zaro hurmat va e’tibor, do‘stlik, hamjihatlik, halollik vaadolat tamoyillari amal qilishi lozim.

Talabalar munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik qilish, shaxsiyatini kamsitish, o‘zganining intelektual mulkini o‘zlashtirib olish, qo‘pollik, behayo so‘zlar ishlatish, mushtlashish, o‘zgalarga ma’naviy, moddiy yoki jismoniy ziyon yetkazish qat’iyan man etiladi.

Ma’muriyat, professor-o‘qituvchilar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlar, o‘zaro hurmat, ahillik, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik, insonparvarlik, g‘amho‘rlik vaadolat tamoillariga asoslanadi.

## **5-BOB. OLIY TA'LIM MUASSASASI JAMOA A'ZOLARI O'RTASIDA KIYINISH MADANIYATI DOIR TAVSIYALAR:**

Tashqi ko‘rinish – insonning kim va qanday ekanligi haqida dastlabki ma’lumotni beruvchi, uning turmush tarzi va hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyati ekanligini inobatga olgan holda oliy ta’lim muassasasi jamoasi kiyinish madaniyatiga rioya etishi lozim.

Jamoa a’zolarining oliy ta’lim muassasasiga me’yoriy hujjatlarda belgilangan tartibga nomuvofiq kiyinish taqiqlanadi.

Jamoa a’zolari oliy ta’lim muassasasiga orasta bo‘lib, unga monand kiyimda kelishi lozim (Keyingi bandlarda kiyinish tartibi alohidalashgan tarzda bayon qilinadi). Muassasada rahbar xodimlar, pedagog, shifokor (yoki bo‘lajak pedagog, shifokor) kasbiga mos holda kiyinislari talab etiladi.

Pedagog xodimlar va murabbiylar talabalarga ibrat na’munasini ko‘rsatishlari shart.

G‘ayrioddiy soch turmamlari, ortiqcha bo‘yangan, past saviyali “ommaviy madaniyat” belgilarini o‘zida namoyish etgan holda, sport kiyimi va poyabzalida kelishi taqiqlanadi.

**Ustki kiyimning turlari** – bichimi ortiqcha bezaklardan xoli, klassik shakldagi kostyum, yubka, bluzka va ko‘ylakdan iborat bo‘lishi tavsiya etiladi. Kostyum, yubka va ko‘ylaklar qora, kulrang, ko‘k ranglardagi sidirg‘a yoki chiziqli klassik matolardan, bluzka esa, oq rangda bo‘lishi lozim. Yubkaning uzunligi tizzadan yuqori bo‘lmasligi kerak. Aksessuarlar (sumka, ko‘zoynak va bezaklar) ham korporativ uslubga mos

holda tanlanishi, ortiqcha bezaklardan xoli bo‘lishi, zargarlik taqinchoqlari (zirak, uzuk, munchoq va boshqalar) ko‘zga yaqqol tashlanmaydigan, nozik, nafis va sipo shaklda did bilan taqilishi lozim.

Sochlar orasta yig‘ilgan, o‘rilgan yoki turmaklangan, ortiqcha aksessuarlardan xoli bo‘lishi kerak. Maxsus formalar kiyiladigan oliy ta’lim muassasasi (tibbiyot, trasport, bojxona, harbiy va ichki ishlar)larda kiyiladigan kiyimlar va shunga monand bosh kiyim toza, tekis, tizzadan pastda turishi, yengi uzun (faslga qarab), klassik uslubda, chet el va turli xil firma yorliqlaridan xoli bo‘lishi lozim.

**Ustki kiyimning turlari** – bichimi klassik shakldagi kostyum, shim, ko‘ylak hamda galstukdan iborat. Kostyum va shimplar qora, kulrang, ko‘k ranglardagi sidirg‘a yoki chiziqli matolardan, ko‘ylaklar esa ochiq ranglarda (oq, kulrang, ko‘k) bo‘lishi lozim. Galstukning kengligi o‘rtacha, uzunligi kamargacha bo‘lib, rangi kostyum va ko‘ylakka mos tanlanishi kerak. Talaba yigitlar talabaga mos, ruchka, qalam, kitob, daftarlar solib yurish mumkin bo‘lgan, rangi ustki kiyimga yarashimli qora, kulrang, jigar rangdagi sumka-portfellar tutishlari lozim.

Oliy ta’lim muassasasi xodim va talabalarning kiyinishida man qilinadigan holatlar keng e’tibor qaratish:

**A) Ayol xodima va talaba qizlar uchun quyidagilar taqiqlanadi:**

- uzunligi tizzadan kalta bo‘lgan, shaffof va yaltiroq matolardan tikilgan, bichimi tor, badanga yopishib turadigan, ko‘krak, qorin, yelka qismi ochiq bluzka va ko‘ylaklar kiyish;

- bezak sifatida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga mos kelmaydigan yozuvlar, turli reklama ma’lumotlari, davlat ramzlari, zo‘ravonlik, faxsh elementlarini targ‘ib qiluvchi rasmlar va yozuvlar aks etgan, rusum sifatida “yirtilgan”, “titilgan” va jinsi matosidan tikilgan kiyimlarda yurish;

- muassasa hududida sport kiyimlari, kalta shim va krossovkalarda yurish (jismoniy tarbiya darslari va darsdan so‘ng talabalar turar joyi binosi, sport maydonchalari va hasharlardan tashqari);

-hijob va boshqa diniy kiyim-boshlarda yurish (O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning (diniy tashkilotlarning xizmatidagilar bundan mustasno) jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishlariga yo‘l qo‘ymaydi”- 14 modda );

-o‘quv anjomlarini ro‘zg‘or, bozor-o‘char uchun mo‘ljallangan paketxaltalarda olib yurish;

-quloq va barmoqlardan tashqari tananing turli qismlariga zirak yoki metall buyumlar taqib yurish;

-kiyimlarda turli xil chet el va boshqa firma yorliqlari bo‘lishi taqiqlanadi.

## **B) Erkak xodim va talaba yigitlar uchun quyidagilar taqiqланади:**

-bichimi tor, yaltiroq, badanga yopishib turadigan hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyaga mos kelmaydigan yozuvlar, turli reklama ma’lumotlari, davlat ramzlari, zo‘ravonlik, fahsh elementlarini targ‘ib qiluvchi rasmlar va yozuvlar aks etgan, rusum sifatida “yirtilgan”, “titilgan” va jinsi matosidan tikilgan kiyimlarda yurish;

-muassasa hududida sport kiyimlari, kalta shim va krossovkalarda yurish (jismoniy tarbiya darslari va darsdan so‘ng TTJ binosi, sport majmuasi va hasharlardan tashqari);

-o‘quv anjomlarini ro‘zg‘or, bozor-o‘char uchun mo‘ljallangan paketxaltalarda olib yurish;

-soch-soqollarni o‘stirib yurish;

-bo‘yin taqinchoqlari yoki turli metall buyumlarini taqish yoki osib yurish;

-tanaga bodiart (badan san’ati) uslubida turli suratlar chizdirish, tatuaj va pirsinglar tushirish odob-axloq qoidalariga zid hisoblanadi hamda muassasa yoki tashkilot, institutga bu holda kelish taqiqlanadi.

## **6-BOB. OLIY TA’LIM MUASSASASI JAMOASIGA DOIR UMUMIY TAVSIYALAR:**

Oliy ta’lim muassasasi jamoasida har bir munosabat (hatto buyumlarga nisbatan ham) tartib qoidalar asosida amalga oshirilishi nuqtai nazaridan, barcha tegishli umumiy tavsiyalar qat’iy ravishda ta’minlanishi lozim.

Milliy va umumbashariy qadriyatlargacha xos bo‘lmagan yoki OTMning ichki muammolariga taaluqli masalalarni Internet tarmog‘iga joylashtirish yoki undan turli maqsadlar yo‘lida foydalanish taqiqlanadi. Kompyuterlarda OTMga tegishli bo‘lmagan ma’lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy diniy ma’lumotlar, behayo suratlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ‘ib qiluvchi har qanday materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ‘ib etish qat’iyan man etiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonlarini olib borishda guruh murabbiylari faoliyatiga barcha jamoa birdek ko‘mak berishi lozim. Oliy ta’lim muassasasi jamoasi orasida “Foydalanish madaniyati” mazmun-mohiyatini tushunish va uni targ‘ib qilish. Ijarada yashovchi talabalardan xabardorlik masalasida hudud mahalla raisi va milisiya tayanch punklari bilan mustahkam aloqada bo‘lishni

tashkil etish va buni jamoatchilik nazorati ostida monitoring qilish.

“Ota-onalar Vasiylik Kengashi” faoliyatida ota-onalar bilan to‘g‘ri va odilona munosabatda bo‘lishni ta‘minlash. Oliy ta’lim muassasasi hududlari xavfsizligini ta‘minlashga ko‘maklashish, bunda ayniqsa talabalar tashabbuskorligini shakllantirish. Muammoli talabalarni OTM jamoasini har biri integrasion tizimli o‘rganishni tashkil qilish(guruh sardori, murabbiy, dekanat va boshqa jamoat tashkilotlari). Oilali talabalar holidan xabardorlik. “Ogohliq davr talabi” ekanligi nuqtai nazaridan tartibbuzarlik va huquqbuzarlikka moyil talabalarni jamoaviy o‘rganish va kerakli choratadbirlarni qabul qilish. Oliy ta’lim muassasasi jamoasida namunali faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar va tahsil olayotgan talabalarni jahon va respublika miqyosida e’tirof etilishiga ko‘maklashish(jamoat tashkilotlari bilan birqalikda).

Korrupsiya va jinoyatchilikka jamoaviy kurashish. Talabalar ta’tili vaqtida ularning mashg‘ul bo‘layotgan vazifalardan jamoaviy xabarlik va uning monitoringni olib borish. Oliy ta’lim muassasasining ta’lim-tarbiya jarayonlarini mahalliy hokimiyat organlari bilan birqalikda olib borishini ta‘minlash.

## **7-BOB. PROFESSOR-O‘QITUVCHILARNING ODOB-AXLOQQA OID MAJBURIYATLARI:**

- a) odob-axloq qoidalariga rioya qilishda talabalarga namuna bo‘lish;
- b) oliy ta’lim muassasasi manfaatlariga zid bo‘lgan xatti – harakatlardan o‘zlarini tiyish;
- v) biror – bir noxush voqeа yoki xodisa ro‘y bersa, zudlik bilan u haqida ma’muriyatga xabar berish;

g) oliy ta’lim muassasasi sha’ni va nufuziga dog‘ tushiradigan har qanday holatlarning oldini olish;

d) yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish;

ye) oliy ta’lim muassasasi to‘g‘risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro‘siga ziyon yetkazish uchun yoki o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanmaslik;

j) dars jarayonida talabalarga odob-axloqqa oid milliy an’analaramiz, urf-odat va qadriyatlarimizni targ‘ib qilishptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo‘lgan diniy ekstremistik ta’sirlardan, tuban “ommaviy madaniyat” xurujlaridan ogoh etib borish;

z) oliy ta’lim muassasasida sog‘lom ma’naviy-ijtimoiy muhitni barqarorlashtirish, tarbiyaviy ishlarda faol qatnashish va amalga oshirishga mas’ul hisoblanadi;

i) ta’lim oluvchilarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqishga ko‘maklashish.

## **8-BOB. TALABALARING ODOB-AXLOQQA OID MAJBURIYATLARI:**

### **1) Oliy ta’lim muassasasi hududida:**

-hududga kirishda talabalik guvohnomasini ko‘rsatib kirish;

-hududni ifloslantirmaslik va chiqindilarni faqat joylardagi urnalarga tashlash;

-ustozlarga duch kelganda salom berish;

-o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida hududda sababsiz yurmaslik;

-oliy ta’lim muassasasi mulki (ko‘char va ko‘chmas mulki, o‘simlik va hayvonot dunyosi va hokazolar) ga

ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, mavjud shart-sharoitlardan oqilona, elektr energiya resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish;

- kiyinish va o‘zaro suhbat odoblariga rioya qilish;

- mutasaddilarning ruxsatisiz turli reklama vositalarini osmaslik;

- maishiy tinchlikka rioya qilish;

- pora berish, korrupsiyaga vositachilik qilish, firibgarlik yo‘li bilan insonlarga moddiy va ma’naviy zarar yetkazish qat’iyana ta’qiqlanadi;

- narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlar iste’mol qilinishi hamda tarqatilishiga qarshi kurashish.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuqoridagi holatlar haqida tegishli tashkilotlarga o‘z vaqtida xabar bermaslik javobgarlikka sabab bo‘lishi alohida qayd etiladi.

### **2) Auditoriyada:**

- uyali aloqa vositalarini o‘chirib qo‘yish;

- dars vaqtida gaplashmaslik;

- jihozlarga madaniy munosabatda bo‘lish, partalarga yozmaslik;

- qog‘oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketmaslik;

- ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik.

### **3) Umumiyl ovqatlanish joylarida:**

- taomlarni olishda navbat tartibiga rioya qilish;

- tirbandlik holatida ustozlar, ayollar, yoshi kattalarga hurmat ko‘rsatish;

- ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;

-umumiyligi ovqatlanish shaxobchasida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish.

#### **4) Axborot resurs markazida:**

- ARM xodimlari bilan hushmuomalada bo‘lish;
- kitoblar va jihozlarga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish;
- baland ovozda so‘zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslik;
- qog‘oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;
- kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalalariga rioya qilish.

#### **5) Talabalar turar joylarida:**

- mavjud jihozlarni asrash, ularga zarar yetkazmaslik;
- elektr-energiyasi, gaz va suv resurslaridan tejamkorona (oqilona) foydalanish;
- sanitariya va gigiyena xonalaridan foydalanish qoidalariiga amal qilish;
- talabalar turar joyi “Nizomi” va “Ichki tartib qoidalari”ga qat’i rioya qilish.

#### **6) Sport majmularida:**

- sport majmuasiga xos bo‘lgan kiyim va poyabzallarda kirish;
- sport inventarlariga nisbatan madaniy munosabatda bo‘lish;
- mashg‘ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish;
- sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalalariga rioya qilish.

## **9-BOB. MADANIYAT SAROYI VA BOSHQA OMMAVIY TADBIRLAR O'TKAZISH JOYLARIDA:**

1) O'rindiq va boshqa jihozlarga nisbatan madaniy munosabatda bo'lish;

- ommaviy tadbirlar vaqtida hushtak chalmaslik, baqirmaslik, tadbir tugashidan oldin sababsiz chiqib ketmaslik; - uqlab o'tirmaslik, o'rindiqlarga yotib olmaslik, bir-biri bilan gaplashmaslik, yon atrofdagilarga halaqit bermaslik.

-turli davralarda o'zining namunaviy xulqi va bilimi bilan oliy ta'lim muassasasi haqida yuksak ijobiy taassurot hosil qilishga intilish;

-doimo komillikka intilish, halollik vaadolat bilan hayot kechirish kabi oljanob fazilatlarni chuqr anglash;

-oliy ta'lim muassasasi manfaati, uning sha'ni va shonli an'analari, obro'si hamda nufuzi to'g'risida qayg'urish, ularni saqlab qolishga jonkuyarlik qilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

## **10-BOB. PROFESSOR-O'QITUVCHI VA TALABALAR ODOB-AXLOQIDA MAN ETILADIGAN HOLATLAR:**

### **1. Professor-o'qituvchiga:**

-jamoa a'zolarining shaxsiyatini va qadr-qimmatini kamsitish, o'zgalarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilish;

-jamoa a'zolari va boshqalar ustidan turli ig'vo, g'iybat va bo'htonlar uyushtirish;

-talabalar bilan o'z hamkasabalarining kasbiy va shaxsiy kamchiliklarini muhokama qilish;

-talabalarni asossiz o‘quv mashg‘ulotlardan chiqarib yuborish;

-o‘quv mashg‘ulotlarida tijorat reklamasi o‘tkazish;

-o‘quv mashg‘ulotlarida diniy tashviqot olib borish;

-o‘quv mashg‘ulotlariga mast, soch-soqol olinmagan va kiyinish tartibiga rioya qilmagan holda kelish;

-binolarda ichish va chekish kabilar qat’iyan man etiladi.

## **2. Talabaga:**

-professor-o‘qituvchilarga qo‘pollik qilish, mashg‘ulotlar vaqtida asossiz gapirish;

-professor-o‘qituvchi bilan boshqalarning bahosini muhokama qilish;

-yolg‘on gapirish, g‘irromlik yoki professor-o‘qituvchilarni chalg‘itish bilan bog‘liq har qanday xattiharakatlar qilish;

-xodimlar va o‘z o‘rtoqlariga nisbatan hurmatsizlik qilish;

-yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir boshqa tartibtaomillarni bajarish vaqtida chetdan yordam olish, o‘zgalarga yordam ko‘rsatish;

-boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o‘z nomidan topshirish;

-mashg‘ulotlarni o‘tkazib yuborish yoki kechikib kelish; - mashg‘ulotlar vaqtida professor-o‘qituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqib ketish;

-boshqa talabaning sa'y-harakatlariga qasddan ziyon yetkazish;

-moddiy jihatdan yaxshi ta’minlanganligini turli yo‘llar bilan ko‘zko‘z qilish qat’iyan man etiladi.

## **11-BOB. MA’MURIYAT, PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR VA XODIMLAR O‘RTASIDAGI ODOB-AXLOQQA OID MUNOSABATLAR:**

Ma’muriyat, professor-o‘qituvchilar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlar, o‘zaro hurmat, ahillik, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik, insonparvarlik, g‘amho‘rlik va adolat tamoillariga asoslanadi.

Ma’muriyat, professor-o‘qituvchilar va xodimlarning ish faoliyatiga doir masalalar bo‘yicha hamkorlik qilishida bir tarafning boshqa tarafga tazyiq o‘tkazishiga yoki unga harakat qilishiga, shuningdek adolat tamoillariga va OTM manfaatlariga zid bo‘lgan qarorlar tayyorlanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Lavozim darajalari teng bo‘lgan xodimlar o‘rtasidagi muammolarni ishchi tartibda hal etish tavsiya etiladi. Lavozim darajalari teng bo‘lgan xodimlarning ish jarayonidagi turli muammolarni o‘z vakolatlari doirasida, ma’muriyatni jalg etmagan holda hal etishlari ma’qullanadi.

Jamoada biror bir masala bilan ma’muriyatga murojaat qilish tartibi subordinasiya tamoili asosida tashkil etiladi.

Professor-o‘qituvchi va xodimning OTMdagi ma’naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash bo‘yicha tashabbus va g‘oyalari rag‘batlantiriladi.

Ma’muriyat professor-o‘qituvchilar va xodimlarning kasbiy va intelektual jihatdan rivojlanishlari uchun qulay ish joyi, zamонавиy kompyuterlar, internet tarmog‘idan, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanish shuningdek hordiq chiqarishlari, dam olishlari, jismonan chiniqishlari uchun barcha imtiyozlarni yaratib beradi.

## **MUNDARIJA**

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
1-bob. Oliy ta’lim muassasalariga xos ushbu tavsiyalar.....	3
2-bob. Oliy ta’lim muassasasi jamoa a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmatga doir tavsiyalar.....	5
3-bob. Tavsiyaviy xarakterdagi tanqidiy fikrlardan xulosalar chiqarish .....	5
4-bob. Rasmiy murojaatlar.....	6
5-bob. Oliy ta’lim muassasasi jamoa a’zolari o‘rtasida kiyinish madaniyati doir tavsiyalar .....	9
6-bob. Oliy ta’lim muassasasi jamoasiga doir umumiyl tavsiyalar ...	12
7-bob. Professor-o‘qituvchilarning odob-axloqqa oid majburiyatlari .....	13
8-bob. Talabalarning odob-axloqqa oid majburiyatlari .....	14
9-bob. Madaniyat saroyi va boshqa ommaviy tadbirlar o‘tkazish joylarida.....	17
10-bob. Professor-o‘qituvchi va talabalar odob-axloqida man etiladigan holatlar.....	17
11-bob. Ma’muriyat, professor-o‘qituvchilar va xodimlar o‘rtasidagi odob-axloqqa oid munosabatlar .....	19